

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI
SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI
“BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDIT” KAFEDRASI
“MOLIYAVIY HISOB” FANIDAN**

KURS ISHI

**MAVZU: BUXGALTERIYA BALANSINI TUZISH
(“RUSTAM PLASTIKS” ISHLAB CHIQRISH KORXONASI MISOLIDA)**

Bajardi: Bh-112 guruh Rashidov G'.H.
Ilmiy rahbar: dots N.U. Xudayberdiyev

Samarqand-2015

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ

САМАРҚАНД ИҚТИСОДИЁТ ВА СЕРВИС ИНСТИТУТИ

«Бухгалтерия ҳисоби ва аудит» кафедра

«Тасдиқлайман»
Кафедра мудири К. Б. Уразов проф. Уразов К.Б.
2014 й. 12.09

«Банкнинг хизматлари» факультети 3 курс БҚ-12 гуруҳи талабаси
Рашидов Ғабдуллоҳ га

КУРС ИШИ БЎЙИЧА ТОПШИРИК

1. Курс ишининг мавзуси: «Бухгалтерия балансини тузиш»

2. Меъёрий ҳужжатлар: Бухгалтерия ҳисоби тўғрисида Қонун (1996-й. 30-август) 15-БҲҲС «Бухгалтерия баланси
Ўз.Р. А.В. томонидан 20.03.2003.й

3. Тавсия этиладиган адабиётлар: Қошиқов, Б.А. Бухгалтерия ҳисоби назаридан - 1. «Янги оғир оғир», 2004.
К.Б. Уразов, Анносов, М.Б. «Абсолют ҳисоб» қўлланма
Ўзбекистон Республикасида қўлдан келтирилган 2013.й. 445-бет

4. Карта, схема, график материаллар рўйхати Рўстан пластик
Шунақа ҳисоб қўлланма ҳисоб ва ҳисобот
маълумотлари

5. Курс ишини бажаришнинг асосий босқичлари	Топшириш вақти
1. <u>Қўриш</u>	<u>8.12.2014</u>
2. <u>Бух-я балансини тўзиш, тасдиқ ва тавсир ҳақида назарий асослари</u>	<u>16.12.2014</u>
3. <u>Қўриқларда бух-я балансини тузиш ва тақрири ҳисоб тоғриси</u>	<u>12.01.2015</u>
4. <u>Ҳисоб ва тақрирлар</u>	<u>17.01.2015</u>
5. <u>Курс иши ҳисоботи</u>	<u>16.02.2015</u>

6. Қўшимча кўрсатмалар: Рўстан Пластик шўъра қўриқлари ҳисоб ва ҳисобот
Қўриқлари тузиш ҳисоботи қўриқлари баъзи ва бошқалар
Вазифа берилган сана 2014 й. 12.09

Курс иши раҳбари: Рашидов

Таърих

Талаба Ғ. Рашидов тоғлиқ қисм оғирлар
курс ишми таълимоти ва таълимоти
маъруза баъдари

Курс ишми „Дуғайтериз баъдари тухми“
маъруза баъдари тухми тухми
маъруза баъдари тухми, 1 баъдари тухми
баъдари тухми, таълимоти ва таълимоти
халқаро таркибни тухми тухми тухми
асосларни баъдари тухми.

Курс ишми 2 баъдари тухми
дуғайтериз баъдари тухми ва таълимоти
тиш таркибни тухми тухми.

Олиб баъдари тухми тухми тухми
халқаро ва таълимоти тухми тухми.

Курс ишми „Kustom Plastik“ ишми
халқаро келадан олиб таълимоти
ишми тухми тухми

Ушмаи курс ишми тухми тухми
халқаро тухми ва халқаро тухми
тишлар

Рашидов

Mundarija

Kirish.....	3
1-bob.Buxgalteriya balansining mohiyati, tasnifi va tavsifi hamda tarkibiy tuzilishining nazariy asoslari	
1.1 Buxgalteriya balansining mohiyati, tasnifi va tavsifi.....	6
1.2 Buxgalteriya balansining tarkibiy tuzilishi.....	10
1.3 Xo'jalik operatsiyalarining buxgalteriya balansiga ta'siri va balansdagi o'zgarishlarning turlari.....	18
2-bob.Korxonalarda buxgalteriya balansini tuzish va taqdim etish tartibi	
2.1 Korxonalarda buxgalteriya balansini tuzish tartibi.....	22
2.2 Korxonalarda buxgalteriya balansini taqdim etish tartibi.....	25
2.3 "Rustam plasteks" ishlab chiqarish korxonasida buxgalteriya balansini tuzish va taqdim etish hamda yaxshilash yo'llari.....	34
Xulosa va takliflar.....	42
Foydalanilgan adabiyotlar.....	44
Ilovalar.....	45

Kirish

Iqtisodiyotni tizimli va tarkibiy jihatdan izchil yangilash davrida iqtisodiyotda makroiqtisodiy mutanosiblikni ta'minlash, iqtisodiy o'sishda yetakchi o'rin tutishi lozim bo'lgan ishlab chiqarish, soha va tarmoqlarni jadal rivojlantirish O'zbekistonning o'ziga xos xususiyatlari muammolarini hal etishga qaratildi.¹ Ushbu vazifalarni bajarishda, xo'jalik yurituvchi subyektlarda buxgalteriya hisobi va hisobotlarni xalqaro standartlar talablariga muvofiq mukammallashtirish masalalari bugungi kunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi.

Buning uchun xo'jalik yurituvchi subyektlarda buxgalteriya hisobining dastlabki hisob ma'lumotlarining tuzilishi va ularning rasmiylashtirilishini, shuningdek, tuziladigan hisobotlarning shakli va mazmunini takomillashtirishni taqazo etadi.

«Moliyaviy hisobot» kursi «Buxgalteriya hisobi nazariyasi», «Moliyaviy hisob», «Boshqaruv hisobi», «Moliyaviy tahlil», «Moliya va kredit», «Soliq va soliqqa tortish», «Menejment», «Marketing», «Statistika» kabi fanlar uzviy bog'liqlikda o'rganiladi. Kichik biznes subyektlari tomonidan statistik va soliq hisobotlarini taqdim etish mexanizmlari sezilarli darajada soddalashtirildi. Bugungi kunda tadbirkorlik subyektlarining 98 foizi soliq va statistika hisobotlari topshirishni, bojxona deklaratsiyalarini rasmiylashtirishni eski usuldagi qog'oz to'ldirish yo'li bilan emas, balki bevosita – elektron shaklda amalga oshirmoqda.²

Moliyaviy hisobot tizimida balans muhim ahamiyatga ega bo'lib, yillik hisobot tarkibida unda katta o'zgarishlar sodir bo'ldi, chunki xalqaro andazalar talablariga yaqinlashdi va bozor munosabatlariga qaratildi. Balansning aktiv va passiv moddalarining mazmuni ichki hamda tashqi foydalanuvchilarga undan foydalanish imkoniyatini berdi. Ichki va tashqi qiziquvchilar uchun korxona faoliyatining moliyaviy natijalari, uning moliyaviy barqarorligi, kreditor qarzlarning hajmi, bank kreditlari bo'yicha qarzlari to'g'risidagi ma'lumotlar zarur.

¹ Karimov I.A. Erishilgan yutuqlarni mustahkamlab, yangi marralar sari izchil harakat qilishimiz lozim. "Xalq so'zi" gazetasi. 29 (3828)-son. 11.02.2006.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2014 yilda respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari 2015 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor vazifalari to'g'risida"gi majlisining BAYONI.2015-yil 16-yanvar.

Korxona ichida balansda keltirilgan axborotlar xo'jalik faoliyatini tahlil qilish, xarajatlar va yo'qotishlarni qisqartirish zaxiralarini qidirib topish, korxona hisobidan to'lanadigan jarimalar sabablarini bartaraf etish uchun keng qo'llaniladi.

Yillik hisobotga tushuntirish xati, korxona rahbarining faoliyat yo'nalishi to'g'risidagi ma'ruzasi, ilova qilinadi. Bu korxonaning asosiy analitik hujjatlaridan biri hisoblanadi. Bunda asosiy ko'rsatkichlar bo'yicha reja bajarilishiga ta'sir etuvchi quyidagi omillar ochib tashlanadi: mahsulot miqdori, assortimenti, sifati, mahsulot sotish hajmi, foyda summasi, tannarxni pasaytirish, mehnat unumdorligini oshirish, samaradorlik, ilmiy - konstruktorlik ishlarini natijalari va istiqbollari va shu kabilar. Tushuntirish xatining mazmuni ishlab chiqarishni tashkil etish va texnologiya xususiyatlari bilan belgilanadi. Bugungi kunda moliyaviy hisobotlarning yangi shakllari tasdiqlangan.³

Mavzuning dolzarbligi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida turli mulk shakllari vujudga kelib, boshqarish vositasi hisoblangan buxgalteriya hisobini boshqa sohalar singari qayta isloh qilish zaruriyati tug'ildi.

Shu sababli Respublika hukumati buxgalteriya hisobi va hisobotini qayta isloh qilish bo'yicha katta ishlarni olib bormoqda. Buxgalteriya hisobi va hisobotini bozor munosabatlari talablariga, shuningdek xalqaro andozalarga moslashtirish maqsadida bozor munosabatlari rivojlangan mamlakatlar iqtisodchilarini bu ishga keng jalb etdi. Ular ishtirokida bozor munosabatlariga mos keladigan buxgalteriya hisobi tizimini yaratish bo'yicha juda katta tadbirlar amalga oshirildi.

Bu muhim tadbirlar ichida buxgalteriya hisobotining yangi tizimini yaratish muhim o'rin tutadi. Hisobotning asosiy shakllaridan biri buxgalteriya balansi hisoblanadi. Buxgalteriya balansi korxona mablag'larini guruhlash va tarkibini pulda aks ettirish hamda pul mablag'larini, ularni hosil etish manbalarini muayyan sanaga joylashtirish usulidan iborat bo'ladi. Balans yordamida korxona faoliyatiga baho beriladi. U kelgusi davr istiqbolini belgilash va korxona byudjetini hisoblash uchun asosiy manbalardan biri bo'lib hisoblanadi.

³ O'z.R. AV tomonidan 2003-yil 24-yanvarda ro'yxatga olingan O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2002-yil 27-dekabrda 140-sonli buyrug'i.

Korxona istiqboli va byudjeti bo'yicha barcha hisob-kitoblar aniq bo'lishi, uning asoslangan bo'lishi lozim. Bunday taxminlash va moliyalashtirish faqatgina aniq hisobot ma'lumotlari, ya'ni buxgalteriya balansi asosida amalga oshirilishi lozim. Balans nafaqat alohida korxonalar ish faoliyatini, balki birlashmalar, tarmoq vazirliklari ish faoliyati yakunlarini aniqlashga imkon beradi. Balans butun xalq xo'jaligi, uning alohida tarmoqlari bo'yicha yig'ma ma'lumotlarni olish uchun xizmat qiladi. Bu dalillar balansning iqtisodiyotni boshqarishdagi ham quyi, ham yuqori bo'g'inida katta ahamiyatga ega ekanligidan darak beradi. Shu sababli men kurs ishini "Buxgalteriya balansini tuzish" mavzusida tanladim.

Kurs ishining asosiy maqsadi. Buxgalteriya balansining mohiyatini, uning ahamiyatini, turlarini va buxgalteriya balansining tarkibini hamda uni tuzish tartibini o'rganishdan iborat.

Kurs ishining vazifalari. Kurs ishining maqsadidan kelib chiqib uning vazifalari quyidagilardan iborat:

- Buxgalteriya balansining nazariy asoslarini;
- Buxgalteriya balansining tavsifi va tasnifini;
- Balansning tarkibiy tuzilishini;
- Balansni tuzish tartibini;
- Balansni taqdim etish tartibini o'rgannish.

Kurs ishining obyekti. Kurs ishimning obyekti sifatida Samarqand viloyat Kattaqo'rg'on tumanidagi "Rustam plasteks" ishlab chiqarish korxonasi tanlandi va unda tuzilgan balans asosida mavzuning amaliy jihatini o'rganildi. «Rustam plasteks» ishlab chiqarish korxonasi respublikamizdagi gaz-suv uchun poletilen trubalari, poletilen plyonka va salafan paketlarni ishlab chiqaruvchi korxonalardan biri sanaladi. Korxona o'z faoliyatini yildan-yilga rivojlantirib bormoqda. Biz amaliyot davrida ushbu korxona bilan yaqindan tanishib chiqqandik. Amaliyot davrida korxonaning barcha moliyaviy-xo'jalik faoliyati bilan tanishib chiqdik. Umuman olganda, korxonada hisob ishlari respublikamizdagi qonun va qonun osti me'yoriy hujjatlari talablari asosida yuritilmoqda. Shu asosda kurs ishi mavzusiga tegishli xulosa va takliflar berildi.

1-bob.Buxgalteriya balansini tuzish va taqdim etish tartibining nazariy asoslari

1.1 Buxgalteriya balansining mohiyati, tasnifi va tavsifi.

Buxgalteriya balansini moliyaviy hisobotning asosiy shakllaridan biri hisoblanadi. Unda xo'jalik yurituvchi su'yektning aktivlari, kapital va majburiyatlar hamda ularning tarkibi to'g'risidagi ma'lumotlar ma'lum bir davrga aks ettiriladi. Buxgalteriya hisobining muhim vazifalaridan biri bo'lib mulkga egalik qilish huquqini ifodalovchi

$$\text{Aktiv} = \text{Xususiy kapital} + \text{Majburiyatlar}$$

matematik tenglikni hamma vaqt ta'minlab berish va saqlash hisoblanadi.

Ushbu tenglikni ta'minlash uchun buxgalteriya hisobi odatda, ma'lum bir davrning boshida aktiv, xususiy kapital va majburiyatlarning boshlang'ich holatini bilishdan boshlanib, shu davrning oxirida ularning oxirgi holatini bilish bilan yakunlanadi. Xo'jalik subyektlarini boshqarish uchun eng avvalo ulardagi mablag'lar haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lish kerak. Shu bilan birga ular mablag'larning qanday turlariga ega va bu mablag'lar qanday manbalardan tashkil topganligini bilish kerak bo'ladi. Bunday ma'lumotlar umumlashtirilga holda pul ko'rsatkichlarida ma'lum bir sanaga berilishi kerak. Mablag'lar tarkibi va qanday maqsadlarga mo'ljallanganligini o'rganish uchun ularni iqtisodiy jihatdan guruhlash zarur. Mana shu ma'lumotlar buxgalteriya balansini yordamida olinadi.

«**Balans**» atamasi lotincha “**bis**”-ikki marta “**lanx**”-tarozi pallasini so'zlaridan tarkib topgan bo'lib, tor ma'noda “**tarozi pallasini**” degan ma'noni anglatadi va tenglik, muvozanat tushunchasi sifatida ishlatiladi.⁴

Ma'lumki balans korxona va tashkilotlarda olib boriladigan hisob jarayonining yakunlovchi bosqichi hisoblanadi. Balansda korxonaning mulkiy va moliyaviy xolatini ifodalovchi ko'rsatkichlar o'z aksini topadi. Balans korxona faoliyatining hisobot davridagi (oy, chorak, yil) faoliyat natijalarini ifodalaydi. Demak, buxgalteriya balansini korxona ish yakunlarini ifodalovchi yig'ma ko'rsatkichlar tizimidir. Balans yordamida korxona faoliyatiga baho beriladi. U kelgusi davr

⁴ K. B. Urazov “Buxgalteriya hisobi nazariyasi”. Samarqand-2014

istiqbolini belgilash uchun korxona byudjetini hisoblash uchun asosiy manbalardan biri bo'lib hisoblanadi.

Korxona istiqboli va byudjeti bo'yicha barcha hisob-kitoblar aniq bo'lishi, uning asoslangan bo'lishi lozim. Bunday taxminlash va moliyalashtirish faqatgina aniq hisobot ma'lumotlari, ya'ni buxgalteriya balansi asosida amalga oshirilishi lozim.

Korxonaning o'tgan davrdagi faoliyatini har tomonlama va asosli baholash, kelgusi davrlarga istiqbolni to'g'ri belgilash uchun korxona xo'jalik faoliyati obdon va chuqur tahlil etilishi lozim. Bunday tahlilda balans ma'lumotlari juda katta ahamiyatga ega. Shunday sifatga ega bo'lgan buxgalteriya balansi korxonani kelgusida yanada rivojlantirish uchun haqiqiy tadbirlarni ishlab chiqishga asos bo'ladi.

Buxgalteriya balansiga qo'yiladigan asosiy talablar, uning to'g'riligi, realligi, yaxlitligi, izchilligi va tushunarlilikidir. Balansning to'g'riligi balansni tuzishda asoslangan hujjatlarning to'laligi va sifati bilan ta'minlanadi. Agar hisobot davrida xo'jalik faoliyatining barcha faktlari o'z vaqtida hujjatli rasmiylashtirilmagan yoki noto'g'ri rasmiylashtirilgan bo'lsa, unda balans korxona ishining haqiqiy yakunini aks ettirmaydi.

Buxgalteriya hisobining muhim huquqiy hujjatlaridan biri hisoblangan O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobi Milliy standart(BHMS)larida 15-son BHMS ⁵“Buxgalteriya balansi” deb nomlanib, unga ko'ra bu standartning maqsadi buxgalteriya balansida aktivlar, o'z sarmoyasi va majburiyatlarning mohiyati va taqdim etilishini belgilash hisoblanadi. Standart moliyaviy hisobotning tarkibiy qismi sifatida buxgalteriya balansini topshirish chog'ida oshkor qilinadigan axborotga qo'yiladigan talablarni o'z ichiga oladi. Ushbu talablar boshqa standartlarda mavjud bo'lgan hamda buxgalteriya hisobining o'ziga xos muammolarini qamrab oladigan oshkor qilish talablariga muvofiq to'ldirilishi mumkin.

⁵ 15-son BHMS “Buxgalteriya Balansi” O'zR moliya vazirining 12.03.2003 y. 45-son buyrug'i bilan tasdiqlangan O'zR AV tomonidan 20.03.2003 y. 1226-son bilan ro'yxatga olingan

Buxgalteriya balansining maqsadi⁶-xo'jalik yurituvchi subyektning buxgalteriya balansini uning resurslarini va moliyaviy tarkibini anglab yetishga imkoniyat berishi uchun hisobot vaqtidagi moliyaviy ahvolni aks ettirishi kerak.

Buxgalteriya balansining turlari. Korxonalar tomonidan tuziladigan buxgalteriya balansini turli belgilari bo'yicha tasniflash mumkin, masalan tuzilgan sanasiga qarab, ma'lumotlarni jamlash hajmiga qarab, subyektlarni moliyalashtirilishiga qarab, regulirovka schyotlari qoldiqlari hisobga olinganligiga qarab va boshqa belgilari bo'yicha **(1-chizma)**.

Tuzilgan sanasiga ko'ra buxgalteriya balansini quyidagi turlarga ajratish mumkin: kirish (yoki ta'sis) balans; boshlang'ich va hisobot balans; tugatish balans; birlashtirish va ajratish balans.

Kirish yoki ta'sis balans deganda korxonaning davlat ro'yxatidan o'tgan sanasiga, ya'ni ta'sis etilgan kuniga tuzilgan balans tushuniladi. Odatda ushbu sanaga tuzilgan balansning aktivida faqat ta'sischi larning yangi tashkil etilgan korxona oldidagi qarzi, balansning passivida esa e'lon qilingan ustav kapitalining miqdori ko'rsatiladi.

Boshlang'ich balans deganda hisobot davri boshiga, **hisobot balans** deganda esa hisobot davrining oxiriga tuzilgan balans tushuniladi. Hisobot balans keyingi davr uchun boshlang'ich balans bo'lib hisoblanadi.


Tugatish balans – korxona tugatilishi sanasiga tuzilgan balans.

Birlashtirish balans – ikki va undan ortiq korxonalar bir-biri bilan qo'shilganda qo'shilish sanasiga tuzilgan balans.

Ajratish balans – bu korxona ixtiyoridan mustaqil boshqa korxona ajralib chiqqanda bir – biriga mablag'larni topshirish va qabul qilish sanasiga tuzilgan balans.

Ma'lumotlarni jamlash darajasiga ko'ra balans yig'ma va alohida balans turlariga bo'linadi.

⁶ 1-son BHMS "Hisob siyosati va moliyaviy hisobot" 66-band. O'zR moliya vazirligining 26.07.1998 y. N 17-17/86-son buyrug'i bilan tasdiqlangan O'zR AV tomonidan 14.08.1998 й. N 474-son bilan ro'yxatga olingan



1-chizma. Buxgalteriya balansini tasniflash asoslari

Yig'ma balans - bu bir tizim korxonalari balanslari moddalarini gorizontal holda jamlash natijasida tuzilgan balans, masalan trest, konsern, kompaniya, vazirlik va shu kabi yuqori organlar tomonidan tuzilgan balans.

Alohida balans –bu har bir ho‘jalik yurituvchi subyekt tomonidan tuzilgan balans.

O‘z qaramog‘ida shuba xo‘jalik jamiyatlariga ega bo‘lgan bosh korxonalar **konsolidatsiyalashtirilgan balans** tuzadilar.

Subyektlarni moliyalashtirilishiga qarab balans bir biridan tubdan farq qiladigan davlat byudjetidagi muassasalar balansi va xo‘jalik yurituvchi subyektlar balansiga bo‘linadi.

Hisob ma'lumotlarini jamlash sikllariga ko'ra sinov balansi, tuzatilgan sinov balansi va oxirgi yakuniy balans turlarini ajratish mumkin.

Sinov balansi – bu vaqtinchalik schyotlar yopilmasdan tuzilgan, shuningdek 1-yanvargacha ayrim schyotlar bo'yicha hisob-kitoblar ma'lum sabablarga ko'ra oxirigacha amalga oshirilmagan holda tuzilgan dastlabki balans. Bunday balansni tuzish tartibi chet el korxonalari amaliyotida keng tarqalgan.

Tuzatilgan sinov balansi - mavjud kamchiliklar tuzatilgandan so'ng,lekinda vaqtinchalik schyotlar yopilmasdan tuzilgan balans.

Yakuniy balans – bu vaqtinchalik schyotlar yopilgach, moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot va taqsimlanmagan foyda to'g'risidagi hisobotlarning ma'lumotlari e'tiborga olinib tuzilgan balans. Oxirgi uchta turdagi balansni tuzish tartibi chet el korxonalari amaliyotida keng tarqalgan.

Regulirovka schyotlari qoldiqlarini hisobga olib balans-brutto va balans –netto tuzilishi mumkin.

Balans- brutto - bu aktivlar summasidan jamlangan amortizatsiya va eskirish summalarini, shuningdek savdo ustamalarini, shubhali qarzlar bo'yicha mavjud rezerv summasini chegirib tashlamasdan tuzilgan balans. Ushbu balans korxona aktivlarining real qiymatini ifoda etmaydi.

Balans-netto – bu aktivlar summasidan jamlangan amortizatsiya va eskirish summalarini, shuningdek savdo ustamalarini, shubhali qarzlar bo'yicha mavjud

rezerv summasini chegirib tashlash yo'li bilan tuzilgan balans. Ushbu balans korxona aktivlarining real qiymatini ifoda etadi.

1.2 Buxgalteriya balansining tarkibiy tuzilishi.

Buxgalteriya hisobi nazariyasi va amaliyotida «balans» so'zi nafaqat tenglik mazmunida, balki davlat ahamiyatiga molik muhim buxgalteriya hisobi hujjati sifatida ham talqin etiladi. O'zbekiston Respublikasida buxgalteriya balansini xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan tuziladigan moliyaviy hisobotning tarkibiy qismi hisoblanadi. Uning shakli, tarkibi va tuzish tartibi Moliya Vazirligining 2002 yil 27 dekabrda 140- son buyrug'i bilan tasdiqlangan « Moliyaviy hisobot shakllarini to'ldirish Qoidalarini»⁷ bilan, balansni taqdim etish tartibi esa Moliya Vazirligining 2000 yil 15 iyundagi 47- son buyrug'i bilan tasdiqlangan « Choraklik va yillik moliyaviy hisobotlarni taqdim etish muddatlari to'g'risida Nizom» da belgilangan.

Buxgalteriya hisobining muhim huquqiy hujjatlaridan biri hisoblangan O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobi Milliy standart(BHMS)larida 15-son BHMS⁸ «Buxgalteriya balansini» deb nomlanib, unga ko'ra bu standartning maqsadi buxgalteriya balansida aktivlar, o'z sarmoyasi va majburiyatlarning mohiyati va taqdim etilishini belgilash hisoblanadi. Standart moliyaviy hisobotning tarkibiy qismi sifatida buxgalteriya balansini topshirish chog'ida oshkor qilinadigan axborotga qo'yiladigan talablarni o'z ichiga oladi. Ushbu talablar boshqa standartlarda mavjud bo'lgan hamda buxgalteriya hisobining o'ziga xos muammolarini qamrab oladigan oshkor qilish talablariga muvofiq to'ldirilishi mumkin. Buxgalteriya balansini moliyaviy hisobotning tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi, xo'jalik yurituvchi subyektning mulkiy va moliyaviy ahvoli haqidagi axborotni to'playdi hamda oshkor qiladi.

⁷ Moliya Vazirligining 2002 yil 27 dekabrda 140- son buyrug'i bilan tasdiqlangan « Moliyaviy hisobot shakllarini to'ldirish Qoidalarini»

⁸ 15-son BHMS «Buxgalteriya Balansi» O'zR moliya vazirining 12.03.2003 y. 45-son buyrug'i bilan tasdiqlangan O'zR AV tomonidan 20.03.2003 y. 1226-son bilan ro'yxatga olingan

Buxgalteriya balansining tarkibi ham tenglik, ham hujjat sifatida e'tirof etiladigan buxgalteriya balansini ikki tomonli, ya'ni chap va o'ng tomonli, jadval ko'rinishiga ega bo'ladi. Jadvalning chap tomoni «**Aktiv**», o'ng tomoni esa – «**Passiv**» nomi bilan ataladi. Jadvalning «Aktiv» tomonida korxonaning xo'jalik aktivlari turlari bo'yicha, jadvalning «Passiv» tomonida esa xo'jalik aktivlari tashkil topish manbalari bo'yicha aks ettiriladi. «Aktiv» va «Passiv» tomonlarda ko'rsatilgan aktivlar va ularning tashkil topish manbalari summalarining yig'indisi bir biriga teng keladi, aynan shu tenglik «balans» deyiladi.

Balansning «Aktiv» termini lotincha «activus», «actum», «agere» so'zlaridan olingan bo'lib, harakatchan, harakat qilmoq, bo'lmoq ma'nosini anglatadi. Korxona nuqtai nazaridan, aktiv – bu korxonani harakatga keltiruvchi mablag'lar. Ular bo'lmasa korxona harakat qila olmaydi, o'z faoliyatini oldinga siljita olmaydi. Buxgalteriya balansining aktiv qismi aynan shunday mablag'larning turlarini hisoblash tartibini ko'rsatadi.

Balansning ikkinchi qismi bo'lgan «Passiv» termini ham lotincha «passivus», «passuk», «pandere» so'zlaridan olingan bo'lib, harakatsiz, saqlash, tushuntirish ma'nosini anglatadi. Korxona nuqtai nazaridan passiv – bu mablag'larning qayerdan olinganligini, ya'ni ularning manbalarini, maqsadini ifodalashdir. Shuning uchun ham balansning passivida korxona mablag'larining manbalari va maqsadlari ko'rsatiladi.

Buxgalteriya balansining xarakterli xususiyati uning aktiv va passiv qismlari summalarining o'zaro tengligidir. Bu tenglikni ta'minlash barcha korxonalar uchun majburiy talab hisoblanadi. Balans tengligi shundaki, uning ham aktivida, ham passivida bir xil miqdordagi mablag'lar aks ettiriladi, faqatgina har xil guruhlash belgilariga qarab (aktivda-ko'rinishiga; passivda-manbalarga qarab). Aynan shu asosda balans nomi kelib chiqqan, chunki bu so'z tenglik, muvozanatlik, muvofiqlikni bildiradi. Shuning uchun ham aktiv va passiv summalari tengligi «Balans» so'zi bilan belgilangan.

Balans aktivi va passivida barcha balans moddalari ikkita bo'limga guruhlangan, ya'ni: **(2-chizma)**.



2-chizma. Balans moddolari guruhlanishi

Balans bo'limi deganda korxona aktivlarini va ularning tashkil topish manbalarini ifodalovchi moddalar summasini u yoki bu belgisiga qarab jamlash usuli tushuniladi.

O'zbekiston Respublikasida qo'llanilayotgan buxgalteriya balansining «Aktiv» tomoni xo'jalik aktivlarini xizmat muddatiga ko'ra quyidagi ikki bo'lim bo'yicha tizimlashga asoslangan:

I bo'lim. «Uzoq muddatli aktivlar». Ushbu bo'limda 1 yildan ko'p muddatda oborotda bo'ladigan asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, moliyaviy va kapital investitsiyalar, shuningdek uzoq muddatli debitorlik qarzlari va muddati uzaytirilgan harajatlarning qoldiq summalari ko'rsatiladi.

II bo'lim. «Joriy aktivlar». Ushbu bo'limda 1 yilga oborotda bo'ladigan ishlab chiqarish zaxiralari va harajatlari, tayyor mahsulotlar va tovarlar, pul mablag'lari, debitorlik qarzlari va boshqa joriy aktivlarning qoldiq summalari ko'rsatiladi.

Balansning «Passiv» tomoni xo'jalik aktivlarini tashkil topish manbalarini turiga qarab quyidagi ikki bo'lim bo'yicha tizimlashga asoslangan:

I bo'lim. «O'z mablag'larining manbai». Ushbu bo'limda ustav kapitali, qo'shilgan kapital, rezerv kapitali, taqsimlanmagan foyda va xususiy kapitalning boshqa elementlarining qoldiq summalari ko'rsatiladi.

II bo'lim. «Majburiyatlar». Ushbu bo'limda korxonaning yuridik va jismoniy shaxslar oldidagi qarzlarning qoldiq summasi ko'rsatiladi.

Jadval ko'rinishidagi buxgalteriya balansi ichki tomondan bo'limlardan, bo'limlar esa- alohida moddalardan iborat bo'ladi.

Balans moddasi deganda balansning har bir qatori tushuniladi, har bir qator esa o'z navbatida bitta yoki bir nechta buxgalteriya hisobi schetlarini o'z ichiga oladi. Shuning uchun ham balansning tasdiqlangan shaklida har bir modda bo'yicha qavs ichida tegishli schetlarning tartib raqamlari ko'rsatilgan.

Mablag'lar va ularning manbaalarini iqtisodiy mazmuni jihatdan guruhlash va yig'ma ko'rinishda aks ettirish uchun buxgalteriya balansi ma'lum bir shaklga keltiriladi. Barcha korxonalarda yagonalikni ta'minlash maqsadida buxgalteriya balansi shakli maxsus jadval ko'rinishdagi xujjat sifatida davlat tomonidan tasdiqlanadi. Chunki buxgalteriya balansi davlat ahamiyatiga molik hujjat hisoblanadi. Uning shakli, ichki tarkibi, tuzilishi hukumat tomonidan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasida 1997-yil 1-yanvardan boshlab barcha turdagi xo'jaliklar uchun buxgalteriya balansining yagona shakli va mazmuni Moliya Vazirligining 1997 yil 15 yanvardagi 5-son buyrug'i bilan tasdiqlanadi. Shuni ta'kidlash joizki, ushbu hujjat respublikada xalqaro hisob tizimiga o'tish bo'yicha olib borilayotgan ishlarning natijalaridan bo'lib hisoblanadi. Buxgalteriya balansining yangi shakli va mazmuni xalqaro andozalar talablariga moslashtirilgan.

Buxgalteriya balansi to'g'risida tasavvurni ravshanlashtirish uchun quyida uning qisqartirilgan shakli va tarkibi shartli ma'lumotlar bilan keltirilgan (**1-jadval**).

I bo'lim. «Uzoq muddatli aktivlar». Ushbu bo'limda 1 yildan ko'p muddatda oborotda bo'ladigan asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, moliyaviy va kapital investitsiyalar, shuningdek uzoq muddatli debitorlik qarzlar va muddati uzaytirilgan harajatlarning qoldiq summaları ko'rsatiladi.

“Uzoq muddatli aktivlar” bo'limida asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar qiymati, uzoq muddatli investitsiyalar, o'rnatiladigan uskunalar, kapital qo'yilmalar, uzoq muddatli debitorlik qarzları va muddati kechiktirilgan uzoq muddatli xarajatlar summaları oshkor qilinishi kerak.

Buxgalteriya balansı qisqartirilgan shakli va tarkibi

Aktiv	Summa	Passiv	Summa
1- bo‘lim. Uzoq muddatli aktivlar		1-bo‘lim. O‘z mablag‘larining manbai	
Asosiy vositalar		Ustav kapitali	
Nomoddiy aktivlar		Taqsimlanmagan foyda	
Moliyaviy investitsiyalar		Rezervlar	
1-bo‘lim bo‘yicha jami		1-bo‘lim bo‘yicha jami	
2-bo‘lim. Joriy aktivlar		2-bo‘lim. Majburiyatlar	
Ishlab chiqarish zaxiralari		Qisqa muddatli kreditlar	
Tayyor mahsulotlar		To‘lanadigan schyotlar	
Tovarlar		Olingan avanslar	
Pul mablag‘lari		Byudjet oldidagi qarzlar	
Debitorlik qarzlar		Ish haqi bo‘yicha qarzlar	
		Sug‘urta bo‘yicha qarzlar	
		Boshqa qarzlar	
2- bo‘lim bo‘yicha jami		2- bo‘lim bo‘yicha jami	
BALANS		BALANS	

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligida 1998 yil 7 sentyabrda 46-son bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasining Buxgalteriya hisobi milliy standarti (5-son BHMS) “Asosiy vositalar”⁹ hamda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligida 1998 yil 12 oktyabrda 49-son bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasining Buxgalteriya hisobi milliy standarti (7-son BHMS) “Nomoddiy aktivlar”ga (ro‘yxat raqami 506-son, 1998 yil 20 oktyabr, “O‘zbekiston Respublikasi vazirliklari, davlat qo‘mitalari va idoralarining me‘yoriy hujjatlari axborotnomasi”, 1999 yil, 6-son) ko‘ra asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar boshlang‘ich (tiklash) qiymati, eskirish (amortizatsiya) summasi, qoldiq qiymati bo‘yicha oshkor qilinishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligida 1998 yil 25 dekabrda 65-son bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasining Buxgalteriya hisobi milliy standarti (12-son BHMS) “Moliyaviy investitsiyalar hisobi”¹⁰ga ko‘ra uzoq muddatli investitsiyalar qimmatli qog‘ozlar qiymati, shuba xo‘jalik jamiyatlariga investitsiyalar, tobe xo‘jalik jamiyatlariga investitsiyalar, xorijiy sarmoyalar

⁹ 5-son BHMS “Asosiy vositalar” O‘zR Moliya vazirining 09.10.2003 y.114-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan, O‘zR AV tomonidan 20.01.2004 y.1299-son bilan ro‘yxatga olingan.

¹⁰ 12-son BHMS “Moliyaviy investitsiyalar hisobi” O‘zR Moliya vazirining 23.12.1998 y.N 65-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan, O‘zR AV tomonidan 16.01.1999 y.N 596-son bilan ro‘yxatga olingan.

ishtirokidagi korxonalarga investitsiyalar va boshqa uzoq muddatli investitsiyalar summolari bo'yicha oshkor qilinishi kerak.

II bo'lim. «Joriy aktivlar». Ushbu bo'limda 1 yilga oborotda bo'ladigan ishlab chiqarish zaxiralari va harajatlari, tayyor mahsulotlar va tovarlar, pul mablag'lari, debitorlik qarzlari va boshqa joriy aktivlarning qoldiq summolari ko'rsatiladi.

“Joriy aktivlar” bo'limida tovar-moddiy zaxiralar, kelgusi davrlar xarajatlari, muddati kechiktirilgan xarajatlarning joriy qismi, debitorlik qarzlari, pul mablag'lari, qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalar va boshqa joriy aktivlar summolari oshkor qilinishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligida 1998 yil 27 avgustda 44-son bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining Buxgalteriya hisobi milliy standarti (4-son BHMS) “Tovar-moddiy zaxiralar”¹¹ga muvofiq tovar-moddiy zaxiralarga quyidagi alohida oshkor qilinadiganlar kiritiladi:

a) Ishlab chiqarish jarayonida yoki ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatishda foydalanish uchun mo'ljallangan xom ashyo, xarid qilinadigan yarim tayyor mahsulotlar va butlovchi buyumlar, yoqilg'i, idish, ehtiyot qismlar, inventar va xo'jalik anjomlari, boshqa materiallar zaxiralarini, parvarish qilinayotgan va bo'rdoqiga boqiladigan hayvonlar, materiallarni tayyorlash va xarid qilish bo'yicha xarajatlari, materiallar qiymatidagi tafovutlarni o'z ichiga oladigan ishlab chiqarish zaxiralari;

b) Tugallanmagan asosiy ishlab chiqarish, xususiy ishlab chiqarishdagi yarim tayyor mahsulotlar, tugallanmagan yordamchi va boshqa ishlab chiqarishlar, ishlab chiqarishdagi brakni o'z ichiga oladigan tugallanmagan ishlab chiqarish;

v) Tayyor mahsulot;

d) Tovarlar.

Debitorlik qarzlari bo'yicha xaridor va buyurtmachilarning qarzlari, alohida bo'linmalar qarzlari, shuba va tobe xo'jalik jamiyatlari qarzlari, xodimlarga

¹¹ 4-son BHMS “Tovar-moddiy zaxiralari” O'zR Moliya vazirining 15.06.2006 y.dagi 52-son buyrug'i bilan tasdiqlangan, O'zR AV tomonidan 17.07.2006 y.da 1595-son bilan ro'yxatga olingan.

berilgan bo'naklar, yetkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan bo'naklar, byudjetga soliqlar va yig'imga bo'yicha bo'nak to'lovlari, davlat maqsadli jamg'armalariga va sug'urta bo'yicha bo'nak to'lovlari, ustav sarmoyasiga qo'yilmalar bo'yicha ta'sischi larning bo'nak to'lovlari, boshqa operatsiyalar bo'yicha xodimlar qarzlari hamda boshqa debitorlar qarzlari summaları oshkor qilinishi kerak.

Pul mablag'lari bo'yicha kassadagi naqd pul mablag'lari qoldig'i, hisob-kitob schyotidagi pul mablag'lari, valyuta schyotidagi pul mablag'lari va boshqa pul mablag'lari (bankdagi maxsus schyotlar, pul ekvivalentlari, yo'ldagi (o'tkaziladigan) pul mablag'lari) summaları oshkor qilinishi lozim.

Aylanma (joriy) va uzoq muddatli aktivlar o'rtasidagi tafovut¹². Har bir subyekt joriy aktivlarni va joriy majburiyatlarni buxgalteriya balansida alohida tasnif sifatida ko'rsatishni (yoki ko'rsatmaslikni) belgilab olishi lozim. Ushbu Standartning 69-71-bandlari ana shunday cheklash amalga oshirilgan taqdirda qo'llaniladi. Xo'jalik yurituvchi subyekt bu tasnifni amalga oshirmaydigan variantni tanlab olsa, aktivlar va majburiyatlarni to'lash muddatlariga doir axborot nima bo'lganda ham ochib ko'rsatilishi kerak.

Xo'jalik yurituvchi subyekt aniq belgilanadigan operatsiya siklidan foydalanib tovarlar va xizmatlarni yetkazib bersa, u holda balans hisobotidagi joriy va uzoq muddatli aktivlar hamda majburiyatlarning alohida tasnif etilishi aylanma mablag' sifatida doimo muomalada bo'ladigan sof aktivlar bilan subyektning uzoq muddatli operatsiyalarida foydalaniladigan aktivlar o'rtasidagi tafovutni farqlash yo'li bilan juda foydali axborot bo'ladi. Shuningdek u joriy operatsiya sikli davomida olinishi kutilayotgan aktivlarni hamda shu davr ichida to'lanishi lozim bo'lgan majburiyatlarni ham ta'kidlab ko'rsatadi. Subyekt joriy va uzoq muddatli aktivlari hamda majburiyatlarini alohida-alohida ko'rsatsa, bunday hollarda ular 69-76-bandlarga muvofiq tasnif etiladi.

¹² 1-son BHMS "Hisob siyosati va moliyaviy hisobot" 67-68-band. O'zR moliya vazirligining 26.07.1998 y. N 17-17/86-son buyrug'i bilan tasdiqlangan O'zR AV tomonidan 14.08.1998 й. N 474-son bilan ro'yxatga olingan

Balansning «Passiv» tomoni xo'jalik aktivlarini tashkil topish manbalarini turiga qarab quyidagi ikki bo'lim bo'yicha tizimlashga asoslangan:

I bo'lim. «O'z mablag'larining manbai». Ushbu bo'limda ustav kapitali, qo'shilgan kapital, rezerv kapitali, taqsimlanmagan foyda va xususiy kapitalning boshqa elementlarining qoldiq summolari ko'rsatiladi.

“Xususiy sarmoya” bo'limida ustav sarmoyasi, qo'shilgan sarmoya, zaxira sarmoya, sotib olingan o'z aksiyalari, taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar), maqsadli tushumlar hamda bo'lg'usi xarajatlar va to'lovlar zaxiralari oshkor qilinishi kerak.

II bo'lim. «Majburiyatlar». Ushbu bo'limda korxonaning yuridik va jismoniy shaxslar oldidagi qarzlarining qoldiq summasi ko'rsatiladi.

“Majburiyatlar” bo'limida uzoq muddatli va joriy majburiyatlar bo'yicha axborotlar alohida oshkor etilishi lozim.

Uzoq muddatli majburiyatlar bo'yicha yetkazib beruvchilar va pudratchilarga uzoq muddatli qarzlar, alohida bo'linmalarga uzoq muddatli qarzlar, shuba va tobe xo'jalik jamiyatlariga uzoq muddatli qarzlar, muddati kechiktirilgan uzoq muddatli daromadlar, soliqlar va majburiy to'lovlar bo'yicha muddati kechiktirilgan majburiyatlar, xaridorlar va buyurtmachilardan olingan bo'naklar, uzoq muddatli bank kreditlari, uzoq muddatli qarzlar va boshqa uzoq muddatli kreditorlik qarzlar summalari ko'rsatilishi kerak.

Foiz stavkalari, so'ndirish shartlari, shartnoma majburiyatlari, so'ndirish navbatliligi, muomala shartlarini umumlashtirish hamda mukofot va diskont summolari buxgalteriya balansi qismida tushuntirish xatida ko'rsatilishi lozim.

Joriy majburiyatlar bo'yicha yetkazib beruvchilar va pudratchilarga qarzlar, alohida bo'linmalarga qarzlar, shuba va tobe xo'jalik jamiyatlariga qarzlar, muddati kechiktirilgan daromadlar, soliqlar va majburiy to'lovlar bo'yicha muddati kechiktirilgan majburiyatlar, boshqa muddati kechiktirilgan majburiyatlar, olingan bo'naklar, byudjetdan soliqlarga oid qarzlar, sug'urtaga oid qarzlar, davlat maqsadli jamg'armalaridan to'lovlarga oid qarzlar, ta'sischilardan qarzlar, mehnatga haq to'lashga oid qarzlar, qisqa muddatli bank kreditlari, qisqa muddatli

qarzlari, uzoq muddatli majburiyatlarning joriy qismi va boshqa kreditorlik qarzlari summaları oshkor qilinadi.

Agar korxona kredit bitimiga binoan uzoq muddatli asosda majburiyatlarni qayta moliyalashni nazarda tutayotgan bo'lsa, uzoq muddatli majburiyatlarning joriy ulushi joriy majburiyatlardan chiqarib tashlanadi. Bunday holda majburiyatlar summasi va qayta moliyalash shartlari oshkor etilishi kerak.

1.3 Xo'jalik operatsiyalarining buxgalteriya balansiga ta'siri va balansdagi o'zgarishlarning turlari

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonaning balansi o'zgarishsiz qolishi mumkin emas, chunki sodir bo'lgan xo'jalik jarayonlari va operatsiyalari albatta aktivlar va ularni tashkil topish manbalarining davr boshidagi holatiga ta'sir ko'rsatmasdan qolmaydi. Misol uchun, korxona o'z ustav kapitalini ko'paytirsam yoki kamaytirsam – bu albatta ham aktivga, ham passivga ta'sir o'tkazadi. Yoki ombordan material ishlab chiqarishga berilsa aktivlarning tarkibida o'zgarish yuz beradi, ish haqidan daromad solig'i ushlansa, aktivlarni tashkil topish manbalari tarkibida ichki o'zgarish yuz beradi, bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin. Demak, yuz bergan operatsiyalar natijasida balansda turli o'zgarishlar bo'lib turadi. Ushbu o'zgarishlarni to'rtta tipga ajratish mumkin (**2-jadval**).

2-jadvaldan quyidagi xulosalarni qilish mumkin:

- I va II tipdagi o'zgarishlar oldingi balans summasini hech qachon o'zgartirmaydi.
- III va IV tipdagi o'zgarishlar albatta oldingi balans summasini o'zgarishiga olib keladi, jumladan uchinchi tip o'zgarishlar balans summasini oshishiga, to'rtinchi tip o'zgarishlar balans summasini kamayishiga sabab bo'ladi.
- Hech qachon balansdagi o'zgarish tiplari bir vaqtning o'zida aktivni bir summaga oshirib, passivni esa o'sha summaga kamaytirishi mumkin emas.

Yuz bergan operatsiyalar natijasida balansda turli o'zgarishlar

Tip	O'zgarish tipining mazmuni	O'zgarish tiplariga misollar	O'zgarish tiplarining algoritmi
1-tip	O'zgarish faqat balansning aktivida yuz beradi, ya'ni bir aktiv ko'payadi, ikkinchisi esa kamayadi. Pirovardida eski balans o'zgarishsiz qoladi	1.Kassadagi pul bankga topshirildi 2.Asosiy vosita xo'jalik inventariga o'tqazildi 3.Ishlab chiqarishdan tayyor mahsulot olindi	$A + OA - KA = P$ A -aktiv OA – oshuvchi aktiv KA-kamayuvchi aktiv P - passiv
2-tip	O'zgarish faqat balansning passivida yuz beradi, ya'ni bir manba ko'payadi, ikkinchisi esa kamayadi. Pirovardida eski balans o'zgarishsiz qoladi	1.Taqsimlanmagan foyda rezerv kapitaliga o'tqazildi 2.Ish haqidan daromad solig'i ushlandi	$A = P + OP - KP$ OP – oshuvchi passiv KP –kamayuvchi passiv
3-tip	O'zgarish ham aktivda, ham passivda yuz beradi, faqatgina ko'payish tomonga, ya'ni operatsiya natijasida aktiv ham, passiv ham bir xil summaga ko'payadi, shu summaga balans summasi oshadi.	1.Ta'minotchidan material olindi 2.Bankdan kredit olindi 3.Ish haqi hisoblandi	$A + OA = P + OP$
4-tip	O'zgarish ham aktivda, ham passivda yuz beradi, faqatgina kamayish tomonga, ya'ni operatsiya natijasida aktiv ham, passiv ham bir xil summaga kamayadi, shu summaga balans summasi ham kamayadi	1.Ish haqi kassadan berildi 2.Byudjetga qarz to'landi 3.Ta'minotchiga materialning haqi to'landi	$A - KA = P - KP$

Yuqorida qayd etganimizdek buxgalteriya balansi har oyning 1-sanasiga tuziladi.Korxona xo'jalik faoliyatini yurutish mobaynida sodir etilgan operatsiyalar tufayli korxona xo'jalik va ularning manbalari uzgaradi.Ushbu operatsiyalar

balansda qanday o'zgarishlarini yuzaga keltirishni quyidagi misol orqali ko'rib o'tamiz.

Faraz qilaylik korxona boshlang'ich balansi kuyidagi ko'rinishga ega:

3-jadval

Qisqacha buxgalteriya balansi

Aktiv	Summa	Passiv	Summa
Asosiy vositalar	350 000	Ustav kapitali	400.000
Materiallar	100.000	Taksimlanmagan foyda	30.000
Kassa	100	Bank kreditlari	20.000
Hisob-kitob schyoti	49 900	Mol yetkazib beruvchilar bilan hisob-kitoblar	50 000
Balans	500 000	Balans	500 000

Birinchi operatsiya: Korxona xodimlariga ish haqi berish uchun hisob-kitob schyotida kassaga 12 100 sum pul olindi. Bunda balansning aktiv qismida joylashgan kassa va hisob-kitob schyotlari bo'yicha operatsiyalar sodir etildi. Korxona kassasidagi pul miqdori 12 100 sumga ko'paydi, hisob-kitob schyotida esa, shuncha miqdorga kamaydi. Balansning aktiv qismi bir moddasi ko'payib, ikkinchisi kamaydi, lekin jami summa o'zgarishsiz qoldi (4-jadval).

4-jadval

Aktiv	Summa	Passiv	Summa
Asosiy vositalar	350 000	Ustav kapitali	400.000
Materiallar	100.000	Taqsimlanmagan foyda	30.000
Kassa	12 200	Bank kreditlari	20.000
Hisob-kitob schyoti	37 800	Mol yetkazib beruvchilar bilan hisob-kitoblar	50 000
Balans	500 000	Balans	500 000

Ikkinchi operatsiya: Mol yetkazib beruvchilar qarzi bank kreditlari hisobidan qoplandi. Bunda mol yetkazib beruvchilar qarzi uzilib, bank qarzlari miqdori ko'paydi (5-jadval).

5-jadval

Aktiv	Summa	Passiv	Summa
Asosiy vositalar	350 000	Ustav kapitali	400.000
Materiallar	100.000	Taqsimlanmagan foyda	30.000
Kassa	12 200	Bank kreditlari	70.000
Hisob-kitob schyoti	37 800	Mol yetkazib beruvchilar bilan hisob-kitoblar	0
Balans	500 000	Balans	500 000

Uchinchi operatsiya: Korxonaga mol yetkazib beruvchilardan sotib olingan materiallar qabul qilindi (75 000sum).Bunda, korxonadagi materiallar miqdori ko'payib, passiv tomonda esa, mol yetkazib beruvchilarga bulgan qarz vujudga keldi.

6-jadval

Aktiv	Summa	Passiv	Summa
Asosiy vositalar	350 000	Ustav kapitali	400.000
Materiallar	175.000	Taqsimlanmagan foyda	30.000
Kassa	12 200	Bank kreditlari	70.000
Hisob-kitob schyoti	37 800	Mol yetkazib beruvchilar bilan hisob-kitoblar	75 000
Balans	575 000	Balans	575 000

Balansning aktiv va passiv qismidagi ikkita moddaning ko'payishi balans summasining 75 000 sumga ko'payishiga olib keldi.

To'rtinchi operatsiya: mol yetkazib beruvchilarga bulgan qarzning 20000 sumi hisob-kitob schyotidan o'tkazib berildi.Bunda, hisob-kitob schyotida pul mablag'lari kamayib, mol yetkazib beruvchilarga bo'lgan qarz miqdori ham ma'lum summaga kamaydi.Balans umumiy summasi ham shu summaga kamaydi.

7-jadval

Aktiv	Summa	Passiv	Summa
Asosiy vositalar	350 000	Ustav kapitali	400.000
Materiallar	175.000	Taqsimlanmagan foyda	30.000
Kassa	12 200	Bank kreditlari	70.000
Hisob-kitob schyoti	17 800	Mol yetkazib beruvchilar bilan hisob-kitoblar	55 000
Balans	555 000	Balans	555 000

2-bob.Korxonalarda buxgalteriya balansini tuzish va taqdim etish tartibi

2.1 Korxonalarda buxgalteriya balansini tuzish tartibi

Buxgalteriya balans (1-son shakl) hisobot davrining boshi va oxirga xo‘jalik yurituvchi subyektlarning aktivlari va ularning tashkil topish manbalarining holatini pulda aks etuvchi hisobot shaklidir. Buxgalteriya balansini tuzish uchun joriy davr yakunlangach quyidagi ishlar amalga oshirilishi lozim:

➤ Bosh kitobda ochilgan barcha sintetik schyotlar yopiladi, ya’ni ularning debet va kredit oborotlari summolari jamlanadi va oxirgi qoldiqlari topiladi;

➤ Bosh kitobda ochilgan sintetik schyotlarning bosh qoldig‘i, debet oboroti, kredit oboroti va oxirgi qoldig‘ining ularga ochilgan analitik schyotlarning (jurnal-orderlar, qaydnomalar, memorial-orderlar, kartochkalar va boshqalar) yig‘ma ma’lumotlari (mos ravishda bosh qoldiq, debet oborot, kredit oborot, oxirgi qoldiq) bilan uyg‘unligi ta’minlanadi. Bunday uyg‘unlikning bo‘lmasligi xo‘jalik operatsiyalarini buxgalteriya hisobi schyotlarida aks ettirishda xatoliklarga yo‘l qo‘yilganligidan darak beradi. Uyg‘unlikni ta’minlash uchun schyotlarga yozuvlar analitik schyotlar bo‘yicha qayta tekshirilib chiqilishi lozim, tegishli hollarda aniqlikga erishish uchun o‘zaro hisob-kitoblarning holati taqqoslama dalolatnomalar bilan rasmiylashtiriladi.

➤ Barcha moddiy boyliklarni aks ettiruvchi schyotlar bo‘yicha hisob ma’lumotlarini aniqligi va ishonchliligini ta’minlash maqsadida ularning davr oxiridagi holati inventarizatsiya qilinadi. Bu, ayniqsa, pul mablag‘lariga, tovar-moddiy boyliklarga, shuningdek hisob-kitoblarga bevosita taalluqlidir. Hisobot davri oxirigacha ikki-uch oy oldin muddatda inventarizatsiyadan o‘tkazilgan moddiy boyliklar, masalan asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, tugallanmagan qurilish ishlari, bo‘yicha inventarizatsiyadan keyingi ma’lumotlar xujjatlar asosida qayta ko‘rib chiqiladi.

➤ Bosh kitobda ochilgan sintetik schyotlar bo‘yicha yig‘ma oborot qaydnomasi tuziladi, unda uchta juft tenglikni (aktiv va passiv schyotlar bo‘yicha mos ravishdagi debet va kredit bosh qoldiqlar, debet va kredit oborotlar,

shuningdek debet va kredit oxirgi qoldiqlar summalarining tengligi) mavjudligi tekshiriladi(2-ilova).

Yuqorida keltirilgan ishlar amalga oshirilgach, bevosita buxgalteriya hisobi schyotlarining oxirgi qoldiq ma'lumotlari asosida buxgalteriya balansining tegishli moddalariga qoidaga muvofiq o'tkaziladi. Kompyuterlashtirilgan buxgalteriya hisobi sharoitida schyotlarning ma'lumotlari asosida buxgalteriya balans avtomatik tarzda shakllanadi. Buning uchun kompyuter xotirasida schyotlar va balans moddalari o'rtasidagi bog'liklik klassifikatori, shuningdek bunday bog'liqlik asosida balans moddalarini shakllantirish algoritmlari va dasturiy ta'minoti mavjud bo'lishi lozim. Buxgalteriya balansini tuzish uning tasdiqlangan shaklida keltirilgan rekvizitlarni to'ldirish, shuningdek uning har bir moddasi qarshisiga tegishli schyotlarning davr oxiridagi qoldiq summalarini ming so'm hisobida yozish orqali amalga oshiriladi. Summasi mavjud bo'lmagan moddalar qarshisiga chiziqcha qo'yiladi. Balans moddalarining summolari ikkita bo'lim, bo'limlar ichida esa alohida guruhlar bo'yicha jamlanadi va ular balansning alohida satrlarida ko'rsatiladi. Ikkita bo'lim bo'yicha jamlangan summalar balansning oxirgi satrida qo'shib yoziladi, ushbu summa "balans valyutasi" deb ataladi va u korxonaning barcha aktivlarining va barcha passivlarining umumiy summasini ifodalaydi.

Buxgalteriya balansining oxirida alohida jadval ko'rinishida balansdan tashqari schyotlarda hisobga olinadigan qimmatliklarning davr boshi va oxiriga mavjudligi to'g'risida ma'lumotlar beriladi.

Buxgalteriya balans moliyaviy hisobot elementlarining uchtasini, ya'ni aktiv, xususiy kapital va majburiyatlarni o'z ichiga oladi. Shuning uchun buxgalteriya hisobining aktivlar, xususiy kapital va majburiyatlarni hisobga oluvchi schyotlarning qoldiqlari asosida buxgalteriya balans tuziladi. Ushbu schyotlarni buxgalteriya balans schyotlari yoki doimiy schyotlari deb atashadi. Chunki bu schyotlar doimiy qoldiqqa ega bo'ladi va hisobot davri oxiriga yopilib ketmaydi. Buxgalteriya balansini tuzish ushbu schyotlarning dastlabki qoldig'i, hisobot

davridagi aylanmasi va hisobot davri oxiriga bo'lgan qoldiq summasini to'g'ri aniqlashga bevosita bog'liqdir.

Balans aktivining “Uzoq muddatli aktivlar” bo'limini to'ldirish uchun zarur ma'lumotlarni aks ettiruvchi schyotlarning hisobot davri yakuniga bo'lgan summasini aniqlashda asosiy e'tibor ularning kirimi va chiqimi, eskirish summasini to'g'ri aniqlash hamda ularni schyotlarda aks ettirish bilan bog'liq ishlarini to'g'ri amalga oshirishni talab qiladi. Korxonalar amaliyotida uzoq muddatli aktivlarning kirimi va chiqimi bilan bog'liq bo'lgan xo'jalik muomalari ancha kam sodir bo'ladi. Ammo ularga eskirish hisoblash bilan bog'liq xo'jalik muomalari doimiy va uzluksiz amalga oshiriladi hamda ular sezilarli salmoqqa ega. Balans aktivining “Joriy aktivlar” bo'limi moddalarini hisobga olish ancha murakkab jarayon bo'lib, buxgalteriya balansini tuzish uchun zarur ma'lumotlarni aniqlashga bir necha bosqichdan iborat hisob-kitob ishlarini amalga oshirishni talab qiladi.

Birinchi bosqichda joriy aktivlarning kirimi bilan bog'liq xo'jalik muomalarining buxgalteriya hisobi schyotlarida to'g'ri hisobga olinganligini tekshirish bilan bog'liq hisob-kitoblar, ya'ni ular kiriminig summasini aniq hisobga olish.

Ikkinchi bosqichda joriy aktivlarning chiqimi, ya'ni ichki ehtiyojlar va zarurat bo'lganda tashqi ehtiyojlar uchun sarflanishi bilan bog'liq xo'jalik muomalarining to'g'ri hisobga olinganligini tekshirish bilan bog'liq hisob-kitoblar, ya'ni ular chiqimi summasini aniqlash.

Uchinchi bosqichda ishlab chiqarish xarajatlari summasini olingan mahsulot (ish, xizmat)lar va tugallanmagan ishlab chiqarish o'rtasida taqsimlash bilan bog'liq hisob-kitoblar. Bu bosqichda hisobot davriga tegishli xarajatlar summasi to'g'ri aniqlanganligiga alohida e'tibor qaratiladi.

To'rtinchi bosqichda “Tayyor mahsulot” va tovarlarning kirmga olinishi va ularning sotilgan qismiga tegishli xarajatlar summasini aniqlash bilan bog'liq hisob-kitoblar amalga oshiriladi.

Beshinchi bosqichda debitorlik qarzlarning harakati bilan bog'liq xo'jalik muomalalarining aniqligini ta'minlashga oid hisob-kitoblar amalga oshiriladi.

Balans passivining "O'z mablag'larining manbalari" bo'limi uchun zarur ma'lumotlarni shakllantiruvchi schyotlar unchalik katta hajmga ega emas. Bu bo'limni to'ldirishda asosiy e'tiborni taqsimlanmagan foyda, maqsadli moliyalashtirish va tushumlar, kelgusi davr sarflari uchun zaxiralar, kelgusi davr daromadlari kabi moddalarni hisobga oluvchi schyotlarning dastlabki qoldig'i, aylanmasi va oxirgi qoldig'iga qaratish lozim. Bu bo'limdagi "Ustav kapitali" moddasi faqat korxonaning ustav kapitali summasi o'zgarganda o'zgartiriladi.

Majburiyatlar bo'limidagi moddalar korxonaning majburiyatlarini hisobga oluvchi schyotlarning qoldig'i asosida tuziladi. Majburiyatlar ikki guruhga bo'lib aks ettiriladi: uzoq muddatli majburiyatlar va joriy majburiyatlar. Balans tuzishdan oldin joriy va uzoq muddatli majburiyatlarga tuzatish kiritilishi lozim. Tuzatish kiritish ikki bosqichda amalga oshiriladi.

Birinchi bosqichda joriy va uzoq muddatli majburiyatlarni bajarilish muddatlariga qarab muddati o'tgan bo'lsa ular alohida muddati o'tgan majburiyatlar sifatida hisobga olinishi lozim.

Ikkinchi bosqichda uzoq muddatli majburiyatlarning joriy yilda to'lanishi lozim bo'lgan qismiga tegishli buxgalteriya o'tkazmalari orqali tuzatishlar qilinishi lozim. Balans tuzishdan oldin ushbu jaryonlarning to'g'ri amalga oshirilganligi tekshirilishi zarur. Shundan so'nggina balansni tuzishga kirishish mumkin.

Shunday qilib, buxgalteriya balansini tuzishdan oldingi hisob ishlarini to'g'ri amalga oshirish buxgalteriya balansini tuzish jarayonini yengillashtiradi va uning muvaffaqiyatli tugallanishini ta'minlaydi.

2.2 Korxonalarda buxgalteriya balansini taqdim etish tartibi

Moliyaviy hisobotning tarkibi va mazmuni O'zbekiston Respublikasining Moliya Vazirligi tomonidan aniq belgilangan.

Mablag'lar va ularning manbaalarini iqtisodiy mazmuni jihatdan guruhlash va yig'ma ko'rinishda aks ettirish uchun buxgalteriya balansi ma'lum bir shaklga

keltiriladi. Barcha korxonalarda yagonalikni ta'minlash maqsadida buxgalteriya balansi shakli maxsus jadval ko'rinishdagi hujjat sifatida davlat tomonidan tasdiqlanadi. Chunki buxgalteriya balansi davlat ahamiyatiga molik hujjat hisoblanadi. Uning shakli, ichki tarkibi, tuzilishi hukumat tomonidan belgilanadi.

Korxonalar buxgalteriya balansini tuzish va taqdim etishda ma'lum tamoyillarga tayanishi kerak. Bu tamoyillarga «Buxgalteriya xisobi to'g'risida» gi Qonunning 6- moddasida keltirilgan. Bu tamoyillar quyidagilardan iborat:

- Hisoblash;
- Ikki yoqlama yozuv usulida hisob-kitobni yuritish;
- Uzluksizlik;
- Xo'jalik operatsiyalari, aktivlar va passivlarni pul bilan baholash;
- Ishonchlilik;
- Ehtiyotkorlik;
- Mazmunning shakldan ustunligi;
- Ko'rsatkichlarning qiyosiyliigi;
- Moliyaviy xisobotdagi betaraflik;
- Xisobot davrida daromadlar bilan xarajatlarning muvofiqligi;
- Aktivlar va majburiyatlarning haqiqiy bahosi;

Xo'jalik yurituvchi subyektning buxgalteriya balansi moliyaviy holatning tarkibini tashkil etuvchi turli jihatlarni aks ettiradigan tarzda taqdim etilishi lozim. Quyidagilar buxgalteriya balansining majburiy unsurlari hisoblanadi¹³: moddiy aktivlar; nomoddiy aktivlar; moliyaviy aktivlar; zaxiralar; debitorlik qarzi; pul mablag'lari va pul ekvivalentlari; kreditorlik qarzi; ajratmalar; foiz to'lashni talab qiluvchi majburiyatlar; o'z sarmoyasi va zaxiralari.

Har bir subyekt joriy aktivlarni va joriy majburiyatlarni buxgalteriya balansida alohida tasnif sifatida ko'rsatishni (yoki ko'rsatmaslikni) belgilab olishi lozim. Xo'jalik yurituvchi subyekt bu tasnifni amalga oshirmaydigan variantni tanlab olsa, aktivlar va majburiyatlarni to'lash muddatlariga doir axborot nima bo'lganda ham ochib ko'rsatilishi kerak.

Xo'jalik yurituvchi subyekt aniq belgilanadigan operatsiya siklidan foydalanib tovarlar va xizmatlarni yetkazib bersa, u holda balans hisobotidagi joriy va uzoq

¹³ 1-son BHMS "Hisob siyosati va moliyaviy hisobot" 67- band. O'zR moliya vazirligining 26.07.1998 y. N 17-17/86-son buyrug'i bilan tasdiqlangan O'zR AV tomonidan 14.08.1998 й. N 474-son bilan ro'yxatga olingan

muddatli aktivlar hamda majburiyatlarning alohida tasnif etilishi aylanma mablag' sifatida doimo muomalada bo'ladigan sof aktivlar bilan subyektning uzoq muddatli operatsiyalarida foydalaniladigan aktivlar o'rtasidagi tafovutni farqlash yo'li bilan juda foydali axborot bo'ladi. Shuningdek u joriy operatsiya sikli davomida olinishi kutilayotgan aktivlarni hamda shu davr ichida to'lanishi lozim bo'lgan majburiyatlarni ham ta'kidlab ko'rsatadi.

Xo'jalik yurituvchi subyektning aktivlari tugatish balansida tugatish komissiyasi tomonidan aniqlangan bahoda ya'ni ularni sotish mumkin bo'lgan baholarda baholanadi. Umidsiz qarzlار va zararlar tugatish balansiga kiritilmaydi.

Tugatilayotgan xo'jalik yurituvchi subyektning majburiyatlari aniqlashtiriladi va ularni tuzish vaqtiga qadar hisoblangan foizlar bilan birga qo'shib tugatish balansida aks ettiriladi. Buxgalteriya balansining satrlari qoidaga muvofiq quyidagi tartibda to'ldiriladi **(3-ilova)**:

Balans hisoboti ma'lumotlari subyektning tashkiliy qayta qurilishi, tovar-moddiy zaxiralarining qayta baholanishi va boshqa shunga o'xshashlarni hisobga olgan holda, 3-ustunda, ya'ni kirish balansining ma'lumotlari yil boshiga ko'rsatiladi.

Balans moddalarining va umumiy summasining yil boshiga va yil oxiriga ma'lumotlarining bir-biriga mos bo'lishi uchun tasdiqlangan balans moddalari yil oxiriga bo'lgan balans moddalari va guruhlangan bo'limlariga mos keltirilishi shart.

2.3 “Rustam plasteks” ishlab chiqarish korxonasida buxgalteriya balansini tuzish va taqdim etish hamda yaxshilash yo’llari.

“Rustam plasteks” ishlab chiqarish korxonasi faoliyatining umumiy tavsifi

Bugungi jadal rivojlanayotgan iqtisodiy munosabatlar sharoitida barcha xo‘jalik yurituvchi subektlar oldida turgan eng muhim masalalardan biri bu foydani maksimallashtirish desak mubolag‘a bo‘lmaydi. SHu maqsadda biz amaliyot o‘tagan «Rustam plasteks» ishlab chiqarish korxonasida ham ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda.

«Rustam plasteks» ishlab chiqarish korxonasi Samarqand viloyat Kattaqo‘rg‘on tuman hokimligi huzuridagi Tadbirkorlik sub’ektlarini ro‘yxatdan o‘tkazish inspeksiyasi tomonidan 2008 yil 3-dekabrda №214-q raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Korxonaning to‘liq nomi: «Rustam plasteks» ishlab chiqarish korxonasi.

Korxonaning manzili: O‘zbekiston Respublikasi, Samarqand viloyati, Kattaqo‘rg‘on tumani, Durbesh QFY Yavi qishlog‘i.

Korxonaning asosiy maqsadi Uzbekiston Respublikasi aholisini ish joylari bilan ta’minlash, ularni turli xil mahsulotlar va xizmatlarga bulgan ehtiyojlarini tularoq qondirish, shuningdek, tadbirkorlikdan tushgan foydani olishdan iborat.

Korxona asosiy maqsadiga erishish uchun quyidagi faoliyat turlarini amalga oshiradi:

CHet el investitsiyasi asosida gaz va suv uchun poletilen trubalari ishlab chiqarish va sotish;

- Oyoq kiyim ishlab chiqarish va sotish;
- Salafan paketlar ishlab chiqarish va sotish;
- Qishloq xo‘jaligida kerak bo‘ladigan poletilen plyonkalar ishlab chiqarish;
- Isitish tarmoqlarida issiq suv va bug‘ uchun foydalanish maqsadida poletilen trubalar ishlab chiqarish va h.k.

Korxonaning hozirgi kundagi ustav kapitali 52 606.5 ming sumni tashkil etadi. Uning ta’sischisi bo‘lib, uning yagona ta’sischisi Yo‘ldoshev Faxriddin Eshquvvatovich hisoblanadi. Jamiyatning hisob siyosatiga muvofiq faoliyatini

hujjatlarda aks ettirish uchun qo'llaniladigan ishchi schyotlari 2-ilovaga asosan quyidagi 9-jadvalda aks ettirilgan:


9-jadval

“Rustam plasteks” ishlab chiqarish korxonasining ishchi schyotlar rejasi

№	Yozuv mazmuni	Schyotlar
1	Bino va inshootlar	0120
2	Mashina va uskunalar	0130
3	Ofis jihozlari	0140
4	Asosiy vositalarni eskirishi	0200
5	Xom ashyo va mollar	1010
6	Asosiy ishlab chiqarish	2010
7	Tayyor tovar maxsulotlar	2910
8	Kelgusi davr xarajatlari	3110
9	Olinadigan schyotlar	4010
10	Kassa	5010
11	Hisob-kitob varag'i	5110
12	Yagona soliq	6410
13	Kamolot YIH	6411
14	Daromad solig'i	6412
15	YaIT 25%	6520
16	PJ ga majburiy sug'urta badali	6521
17	Jamg'arib boriladigan Pfga 1%	6522
18	Tasischilar bilan hisob-kitoblar	6630
19	Mehnat haqi buyicha hisob-kitoblar	6710
20	Mol yetkazib beruvchilar bilan h-k.lar	6010
21	Qisqa muddatli bank kredeti	6810
22	Uzoq muddatli bank kredeti	7810
23	Taqsimlanmagan foyda	8710
24	Aktivlarni qayta baholash	8510
25	Ustav kapitali	8310
26	Kegusi xarajatlar va to'lovlarning zaxiralari	8900
27	Har xil kreditorlarga bolgan qarizlar	6910
28	Maxsulot sotishdan daromad	9010
29	Sotilgan maxsulot tannarxi	9110
30	Ma'muriy xarajatlar	9420
31	Foyda va zararlar	9900

«Rustam plasteks» ishlab chiqarish korxonasining 2014 yil 1–yanvar holatiga aktivlarining qiymati 1 125 732.8 ming soʻmni tashkil etib, uning 264 912.0 ming soʻmi uzoq muddatli aktivlar hisoblanadi.

Jamiyatning oʻz mablagʻlari 659 232.3 ming soʻm, majburiyatlari esa 466 500.5 ming soʻm boʻlgan. 1-ilogvaga asosan yaʼni:



1-diagramma. 2014 y. 1-yanvar holatiga Jamiyat aktivlari va passivlarining tarkibiy holati

Korxonada 1-yanvar holatida jami aktivlaridagi joriy aktivlar ulushi 76.47% ni tashkil qilgan. Uzoq muddatli aktivlar qiymati esa 23.53%.

Aktivlarning tashkil topish manbalarining 58.44% oʻz mablagʻlari, qolgan 41.44% majburiyatlardan iboratdir.

Bilamizki jami aktivlar xususiy kapital va majburiyatlarning yigʻindisiga teng, yaʼni:

$$\text{Aktiv} = \text{Xususiy kapital} + \text{Majburiyatlar}$$

Buni xususiy kapital va majburiyatlarning aktivlardagi ulushi sifatida ifodalasak quyidagi quyidagi diagramma hosil boʻladi.




2-diagramma. Jami aktivlar holati

«Rustam plasteks» ishlab chiqarish korxonasining 2014 yil 1-yanvar holatidagi moliyaviy natijlari to'g'risidagi hisobotni ko'radigan bo'lsak, unda quyidagi o'zgarishlar bo'lgan (1-ilova).

10-jadval

«Rustam plasteks» ishlab chiqarish korxonasi moliyaviy natijlari to'g'risidagi hisobotning tahlili (01.01.2014)

Kursatkichlar nomi	Satr kodi	Utgan yilning shu davrida		Xisobot davrida		O'zgarishlar (+,-)	
		Daromadlar (foyda)	Xarajatlar (zarar)	Daromadlar (foyda)	Xarajatlar (zarar)	Daromadlar (foyda)	Xarajatlar (zarar)
1	2	3	4	5	6	7	8
Maxsulot (tovar, ish va xizmat) larni sotishdan tushgan tushum CHistaya vyruchka ot realizatsii produkcii (tovarov, rabot i uslug)	010	795258.2	X	1146342.4	X	351084.2	
Sotilgan maxsulot (tovar, ish va xizmat) larning tannarxi Sebestoimost realizovannoy produkcii (tovarov, rabot i uslug)	020	X	580378.3	X	822668.0		242289.7
Maxsulot (tovar, ish va xizmat) larni sotishning yalpi foydasi (zarari) 010-020 Valovaya pribyl (ubytok) ot realizatsii produkcii (tovarov, rabot i uslug) 010-020	030	214879.9	X	323674.4	X	108794.5	
Davr xarajatlari, jami (050+060+070+080), shu jumladan: Rasxodы perioda, vsego (050+060+070+080), v tom chisle:	040	X	21019.4	X	54951.1		33931.7
Sotish xarajatlari Rasxodы po realizatsii	050	X	1722.8	X	4448.7		2725.9
Ma'muriy xarajatlari Administrativnyye rasxodы	060	X	19224.3	X	45918.2		26693.9
Boshka operatsion xarajatlari Prochie operatsionnyye rasxodы	070	X	72.3	X	4584.2		4511.9
Asosiy faoliyatning foydasi (zarari) 030-040+090 Pribyl (ubytok) ot osnovnoy deyatel'nosti 030-040+090	100	193860.5	X	268723.3	X	74862.8	
Umumxujalik faoliyatining foydasi (zarari) 100+110-170 Pribyl (ubytok) ot obshchexozyaystvennoy deyatel'nosti 100+110-170	220	193860.5	X	268723.3	X	74862.8	
Daromad (foyda) soligi tulangunga kadam foyda (zarar) 220+/-230 Pribyl (ubytok) do uplaty naloga na doxodы (pribyl) 220+/-230	240	193860.5	X	268723.3	X	74862.8	
Daromad (foyda) soligi Nalog na doxodы (pribyl)	250	X		X			
Foydadan boshka soliklar va yigimlar Prochie nalogi i sborы ot pribyli	260	X	39762.9	X	57317.1		17554.2
Xisobot davrining sof foydasi (zarari) 240-250-260 CHistaya pribyl (ubytok) otchetnogo perioda 240-250-260	270	154097.6	X	211406.2	X	57308.6	



3-diagramma. Jamiyatning 01.01.2014 yil holatiga daromadlarining o'zgarishi
Yuqoridagi jadval va diagrammalardan xulosa qilganda «Rustam plasteks» ishlab chiqarish korxonasining 01.01.2014 holatiga hisobot davrining sof foydasi o'tgan yilga nisbatan 37.1% oshdi.(1-ilova).

«Rustam plasteks» ishlab chiqarish korxonasida buxgalteriya balansini aktiv qismini to'ldirish tartibi.

Quyidagi 11-jadvalda «Rustam plasteks» ishlab chiqarish korxonasi balansining aktiv qismi keltirilgan.

11-jadval

«Rustam plasteks» ishlab chiqarish korxonasi buxgalteriya balansining aktiv qismi (01.01.2014. ming so'mda)

Ko'rsatkichlarning nomi	Satr kodi	Hisobot davri boshiga	Hisobot davri ohiriga	Hisobot davri boshiga nisbatan o'zgarishi	Hisobot davri boshiga Jami aktivlardagi ulushi %	Hisobot davri ohiriga Jami aktivlardagi ulushi
1	2	3	4	5	6	7
A K T I V						
I. Uzoq muddatli aktivlar						
Asosiy vositalar :						
Boshlang'ich (qayta tiklash) qiymat (0100,0300)	010	370794.7	370794.7	0		
Eskirish summasi (0200)	011	63088.4	105882.7	42794.3		

Koldik (balans) qiymati 010-011	012	307706.3	264912.0	42794.3		
I-bo'lim bo'yicha jami 012+022+030+090+100+110+120	130	307706.3	264912.0	42794.3		
II. Joriy aktivlar						
Tovar-moddiy xaziralari, jami (150+160+170+180) shu jumladan:	140	157921.3	697204.4	539283.1		
Ishlab chiqarish xaziralari (1000,1100,1500,1600)	150	132973.9	684148.1	551174.2		
Tovarlar (2900 dan 2980 ning ayirmasi)	180	24947.4	13056.3	11891.1		
Debitorlar, jami (220+230+240+250+260+270+280+290+300+310)	210	226098.0	163589.0	62509		
Xaridor va buyurtmachilarning qarzlari (4000 dan 4900 ning ayirmasi)	220	222227.0	92482.8	129744.2		
Xodimlarga berilgan bo'naklar (4200)	250	421.9	--			
Mol etkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan bo'naklar (4300)	260	3449.1	67106.2	63657.1		
Boshqa debitorlarlik qarzlari (4800)	310		4000.0			
Pul mablag'lari, jami (330+340+350+360), shu jumladan:	320	20679.1	27.4	20651.7		
Hisoblashish schyotidagi pul mablag'lari (5100)	340	20679.1	27.4	20651.7		
II-bulim bo'yicha jami (140+190+200+210+320+370+380)	390	404698.4	860820.8	456122.4		
BALANSNING AKTIVI BO'YICHA JAMI 480+770	400	712404.7	1125732.8	412328.1		

11-jadvalda jamiyatning 2014-yil 1-yanvarga tuzilgan buxgalteriya balansining aktiv qismi tahlil qilingan. Unga ko'ra hisobot davri oxirida Jamiyatning jami aktivlari davr boshiga nisbatan **413 328.1 ming so'mga** ko'paygan. Hisobot davri oxirida uzoq muddatli aktivlarning jami aktivlar tarkibidagi ulushi 23,53 %ni tashkil etgan. Joriy aktivlarda esa eng ko'p ulush tovar-moddiy zahiralarga to'g'ri keladi, ya'ni **81%**.

«Rustam plasteks» ishlab chiqarish korxonasi buxgalteriya balansini passiv qismini to'ldirish tartibi.

PASSIV	Satr kodi	Hisobot davri boshiga	Hisobot davri oxiriga	Hisobot davrin boshiga nisbatan o'zgarishi	Hisobot davri boshiga Jami aktivlardagi ulushi %	Hisobot davri oxiriga Jami aktivlardagi ulushi
1	2	3	4	5	6	7
I. Uz mablaglari manbalari						
Ustav kapitali (8300)	410	159327.8	159327.8	0		
Rezerv kapitali (8500)	430	41196.1	41196.1	0		
Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar) (8700)	450	154097.6	211406.2	57308.6		
Kelgusi davr xarajatlari va to'lovlari uchun rezervlar (8900)	470	108570.9	247302.2	-83840.7		
I-bulim bo'yicha jami (410+420+430+440+450+460+470))	480	463192.4	659232.3	196039.9		
II. Majburiyatlar						
Uzoq muddatli majburiyatlar, jami (500+510+520+530+540+550+560+570+580+590)	490	-	44400.0			
Uzoq muddatli bank krediti (7810)	570		44400.0			
Joriy majburiyatlar, jami (610+630+640+650+660+670+680+690+700+710+720+730+740+750+760)	600	249212.3	422100.5	172888.2		
SHu jumladan: joriy kreditorlik qarzlari (610+630+650+670+680+690+700+710+720+760)	601	249212.3	422100.5	172888.2		
Soliq va majburiy to'lovlari bo'yicha kechiktirilgan qarzlari (6240)	660		67376.3			
Budjetga to'lovlari bo'yicha qarzlari (6400)	680	25426.1	23286.1	2140		
Sug'urtalar bo'yicha qarzlari (6510)	690	1044.2	520.8	-523.4		
Ta'sis chilarga bo'lgan qarzlari (6600)	710	126968.1	160691.6	33723.5		
Mehnatga haq to'lash bo'yicha qarzi (6700)	720		8015.6			
Boshqa kreditorlik qarzlari (6950 dan tashkari 6900)	760	95773.9	162210.1	66436.2		
II-bulim bo'yicha jami (490+600)	770	249212.3	466500.5	217288.2		
BALANSNING PASSIVI BO'YICHA JAMI 480+770	780	712404.7	1125732.8	413328.1		

12-jadvalda jamiyatning 2014-yil 1-yanvarga tuzilgan buxgalteriya balansining passiv qismi tahlil qilingan. Unga ko'ra hisobot davri oxirida Jamiyatning jami aktivlarining tashkil topish manbalarida o'z mablag'larining ulushi hisobot davri oxirida 58,56 %ni tashkil etgan.

Xulosa va takliflar

Bugungi kunda Respublikamiz iqtisodiyotini bozor munosabatlariga o'tkazish bilan korxonalar xo'jalik faoliyatini tahlil qilishni ahamiyati yanada ortadi, chunki iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida ishlab chiqarishga joriy etilmagan resurslarni aniqlash va ulardan samarali foydalanish eng dolzarb muammoga aylandi.

Bozor munosabatlarining shakllanishi, rivojlanishi va modernizatsiyalash har xil shakldagi biznesni va ishbilarmonlikni rivojlantirish shunga olib keladiki, korxonalar faoliyatini moliyaviy natijalari - foyda va rentabellik korxonalar faoliyatini asosiy ko'rsatkichlariga aylanadi.

Shuningdek, 2014-yilda tijorat banklari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga 9 trillion so'mdan ortiq yoki 2013-yilga nisbatan 1,3 barobar ko'p, shu jumladan, 2 trillion so'mga yaqin miqdordagi mikrokreditlar ajratildi. Bu o'tgan yilga qaraganda 39 foiz ko'pdir. So'nggi besh yilda kichik biznesni kreditlash hajmi qariyb 5 barobar ko'paydi.¹⁴

Xulosa qilib aytganda, buxgalteriya balansi hisobotning asosiy shakllaridan biri bo'lib, korxona va tashkilotlarda olib boriladigan hisob jarayonining yakunlovchi bosqichi hisoblanar ekan.

Kurs ishini yozish jarayonida buxgalteriya balansini tuzishning nazariy jihatlarini, ya'ni uning mazmuni, mohiyati, iqtisodiyotdagi ahamiyati, turli belgilariga ko'ra tasnifi va ularning tavsifi hamda balansni to'ldirish tartibini batafsil o'rgandim. Korxonalar tomonidan tuziladigan buxgalteriya balansini turli belgilari bo'yicha tasniflash mumkin, masalan tuzilgan sanasiga qarab, ma'lumotlarni jamlash hajmiga qarab, subyektlarni moliyalashtirilishiga qarab, regulirovka schyotlari qoldiqlari hisobga olinganligiga qarab va boshqa belgilari bo'yicha. Yuqorida qayd etganimizdek buxgalteriya balansi har oyning 1-sanasiga tuziladi. Korxona xo'jalik faoliyatini yuritish mobaynida sodir etilgan operatsiyalar tufayli korxona xo'jalik va ularning manbalari uzgaradi. Yuz bergan operatsiyalar

14 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2014 yilda respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari 2015 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor vazifalari to'g'risida"gi majlisining BAYONI. 2015-yil 16-yanvar.

natijasida balansda turli o'zgarishlar bo'lib turadi. Hech qachon balansdagi o'zgarish tiplari aktivni bir summaga ko'paytirishga (kamaytirishga), passivni esa boshqa bir summaga ko'paytirishga (kamaytirishga) olib kelishi mumkin emas. Buxgalteriya balansi (1-son shakl) hisobot davrining boshi va oxirga xo'jalik yurituvchi subyektlarning aktivlari va ularning tashkil topish manbalarining holatini pulda aks etuvchi hisobot shaklidir. Shu bilan birga nazariy to'plangan bilimlarni amaliyot bilan taqqoslagan holda «Rustam plasteks» ishlab chiqarish korxonasining o'tgan davrdagi yillik balansi olinib, uning tarkibi hamda to'ldirilish tartibi o'rganildi. Buxgalteriya balansini tuzishdan oldingi hisob ishlarini to'g'ri amalga oshirish buxgalteriya balansini tuzish jarayonini yengillashtiradi va uning muvaffaqiyatli tugallanishini ta'minlaydi. Umuman olganda, korxonada hisob ishlari respublikamizdagi qonun va qonun osti me'yoriy hujjatlari talablari asosida yuritilmoqda. Hujjatlarni tahlil qilish mobaynida ularni to'ldirish va rasmiylashtirish bilan bog'liq xato va kamchiliklar aniqlandi, ya'ni buxgalteriya balansi 1-sonli shaklni titul varaqlarini to'ldirishda kodlar to'liq qo'yilmagan, bosh buxgalter imzosi qo'yilmagan. Shuningdek, haligacha korxonada axborot texnologiyalar rivojlanayotgan bir davrda hisob-kitob ishlari kompyuterlashtirilmagan tarzda yuritilmoqda. Taklif o'rnida shuni aytish mumkinki, hujjatlarni to'ldirishda va rasmiylashtirishda ularning to'liqligiga e'tibor berilsa, jamiyatni kompyuterlashtirilgan tarzda hisob-kitob ishlari olib borilishi uchun dasturiy ta'minot bilan ta'minlansa faoliyati mukammalroq va qo'shimcha ish vaqti sarifini qilmagan bo'lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining buxgalteriya hisobi to'g'risida qonuni. 1996 yil 30 avgustda qabul qilingan.
2. O'z.R. AV tomonidan 24.01.2003 yilda ro'yxatga olingan O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2002-yil 27-dekabrdagi 140-sonli buyrug'i.
3. 1-son BHMS "Hisob siyosati va moliyaviy hisobot". O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan 14.08.1998 y. 474-son bilan ro'yxatga olingan.
4. 5-son BHMS "Asosiy vositalar". O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan 20.01.2004 y.1299-son bilan ro'yxatga olingan.
5. 12-son BHMS "Moliyaviy investitsiyalar hisobi". O'zR Adliya Vazirligi tomonidan 16.01.1999 y. N 596-son bilan ro'yxatga olingan.
6. 15-son BHMS "Buxgalteriya Balansi" O'zbekiston Respublikasi AV tomonidan 20.03.2003 y. 1226-son bilan ro'yxatga olingan
7. Karimov I.A. Erishilgan yutuqlarni mustahkamlab , yangi marralar sari izchil harakat qilishimiz lozim. "Xalq so'zi" gazetasi. 29 (3828)-son. 11.02.2006.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezident Islom Karimovning "Amalga oshirayotgan islohotlarimizni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati qurish – yorug' kelajagimizning asosiy omilidir" mavzusida Konstitusiyasi qabul qilinganining 21 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi 06.12.2013y.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining " 2014 yilda respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari 2015 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor vazifalari to'g'risida"gi majlisining BAYONI.16.01.15y
10. K.B.Urazov, AnnayevM.B «Moliyaviy hisob» fanidan o'quv uslubiy majmua. SamISI 2013.- 445 bet.
11. K. B.Urazov "Buxgalteriya hisobi nazariyasi". Samarqand-2014.
12. www.lex.uz
13. www.ziynet.uz
14. www.referat.uz